

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**BAXRILLAYEVA MUNISA AMIRXANOVNA**

**OG'IR METALLAR TUZLARINI QUYONLAR OVQAT HAZMI  
TRAKTINING MORFO-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARIGA, TABIIY  
CHIDAMLILIGIGA TA'SIRI**

**03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Baxrillayeva Munisa Amirxanovna**

Og‘ir metallar tuzlarini quyonlar ovqat hazmi traktining morfo-funksional xususiyatlariga, tabiiy chidamliligiga ta’siri ..... 3

**Бахриллаева Муниса Амирхановна**

Влияние солей тяжелых металлов на морфофункциональные особенности пищеварительного тракта, естественную устойчивость кроликов ..... 21

**Baxrillayeva Munisa Amirxanovna**

Effects of heavy metal salts on the morpo-functional properties of the digestive tract of rabbits, natural resistance ..... 39

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**BAXRILLAYEVA MUNISA AMIRXANOVNA**

**OG'IR METALLAR TUZLARINI QUYONLAR OVQAT HAZMI  
TRAKTINING MORFO-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARIGA, TABIIY  
CHIDAMLILIGIGA TA'SIRI**

**03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B834 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rajamurodov Zaynitdin**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Matchanov Azat Taubaldiyevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Abdullayeva Gulbohor Tolibjonovna**  
biologiya fanlari doktori


**Yetakchi tashkilot:**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "14" iyun kuni soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (40 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" may kuni tarqatildi.  
(2025-yil "29" may № 22 sonli reyestr bayonnomasi)



**T.F.Rajabov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d.

**M.S.Kuziyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d. (PhD), dotsent

**A.R.Jabborov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda demografik o'sish bilan birgalikda, tabiiy toza ekologik xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish ustuvor masalalardan hisoblanadi. Keyingi yillarda tabiatga antropogen ta'sirning kuchayib borishi, ya'ni transport vositalari sonining keskin ko'payishi, sanoat chiqindilari, oqova suvlar, turli chiqindi gazlar, issiqlik va elektr stansiyalari chiqindilari atrof-muhitga va tirik organizmlarda kechadigan fiziologik jarayonlarga salbiy ta'sirini kamaytirishga keng e'tibor qaratilmoqda. Chunki muhitda tarqalgan chiqindi gazlar va boshqa moddalar ozuqa zanjiri orqali hayvonlar organizmiga tushib, hayvonlar hayotchanligi, salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, mahsuldorlik ko'rsatkichlarini kamayishiga sabab bo'lmoqda, shu boisdan ularni muvozanatlashtirilgan ozuqa ratsionlar asosida oziqlantirish uchun qulay va turli zararli moddalardan holi bo'lgan to'yimli ozuqa ratsionlari asosida oziqlantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Jahonda to'yimlilik yuqori, hazm tizimida oson hazmlanuvchi parxezbop go'sht va go'sht mahsulotlari, sifatli mo'yna va momiq jun beruvchi mahsuldor hayvon zotlarini yaratish, ularning mahsuldorlik hamda tabiiy chidamlilik ko'rsatkichlarini oshirish, hayvonlarni ratsional oziqlantirish, ozuqalarning ozuqaviylik xususiyatlari va hazmlanish koeffitsientlarini oshirishning biologik asoslarini ishlab chiqish, tabiiy ozuqaviy qo'shimchalarni izlab topish va amaliyotga keng joriy qilish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tarkibida turli og'ir metall tuzlari saqlaydigan ozuqalarning hayvonlar mahsuldorlik ko'rsatkichlariga va og'ir metallar tuzining ta'sirini neytrallashtirish, turli organlarda to'planishining oldini olish asosida hayvonlarning mahsuldorligini oshirish, olinadigan mahsulotning ekologik xavfsizligini hamda mahsulot sifatini yaxshilash bilan birga tabiiy chidamliligini oshirish choralariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli antropogen omillar, atmosfera havosi va ozuqalar tarkibida uchraydigan turli toksik ta'sir etuvchi moddalarning ta'sir kuchini pasaytirish, turli organlarda to'planishining oldini olish asosida ekologik jihatdan xavfsiz, to'la qiymatli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, nasldor hayvonlarning yuqori mahsuldorlik xususiyatlarini saqlab qolish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish"<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, quyonchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda hayvonlarni muvozanatlashtirilgan ozuqalar asosida oziqlantirish, ozuqalarning biologik qiymatini, ozuqaviylik xususiyatlari va to'yimli moddalarning hazmlanish darajalarini yaxshilash hamda konversiya ko'rsatkichlarini oshirish uchun tabiiy xavfsiz ozuqaviy qo'shimchalarni izlab topish va ishlab chiqarishga joriy qilish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup>. "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" ги ПФ – 4947 сон фармони. 7 феврал 2017 йил.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagi PQ-2841-son “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi PQ-4243-son “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PQ- 4406-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-son “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Chorvachilik sohalari orasida o‘zining serdaromadligi bilan ajralib turuvchi quyonlar organizmining gomeostatik tizimiga og‘ir metallar tuzining ta‘sir mexanizmi va mahsuldorlik xususiyatlariga oid ma‘lumotlar xorijiy olimlar G.A.Teplaya (2013), A.F.Titov, N.M.Kaznina, T.A.Karapetyan, N.V.Dorshakova (2014), I.P.Solomon, S.A.Oyebadejo, V.A.Uyanga (2014), M.A.Korish, Y.A. Attia (2020), M.Charles, B.Mohammed, K.Rifkatu va Y.Emmanuel (2017), A.Bersényi (2003), S.Bulankova (2012), B.Kaloyev (2015), J.K.Bhardwaj, A.Paliwal, P.Saraf (2021) va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida qayd qilingan. Mamlakatimizda K.R.Ochilov (2020), O.J.Tojikulova (2019), Sh.Xoliqulov (2018) kabi olimlar tomonidan o‘g‘ir metallarning tirik organizmlarga ko‘rsatadigan salbiy ta‘siri va atrof-muhitda tarqalishi haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu ishlarning aksariyati og‘ir metallar organizmdagi jigar, buyrak, reproduktiv organlarning faoliyatiga zarar yetkazishi muammolarni o‘rganishga qaratilgan.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda sanoatning keng ko‘lamda rivojlanishi, avtoulavlar sonining kundan kunga ortib ketayotganligi, sug‘oriladigan maydonlardan qurilish maqsadida foydalanilish hisobiga, mamlakatimiz aholisini kimyoviy jihatdan xavfsiz, ekologik sof mahsulotlar bilan ta‘minlash maqsadida, sanoat asosida qurilgan komplekslar tashkil qilinishi talab etilmoqda. Yuqoridagi talablarga javob bermaslik holatlari muvozanatlashtirilmagan ratsionlar bilan oziqlantirilmaslik, oqsil, yog‘ va uglevodlar miqdorining me‘yor darajasida bo‘lmasligi oqibatida qishloq xo‘jaligi hayvonlarida kelib chiqadigan o‘zgarishlar haqida ma‘lumotlar yetarli. Ammo og‘ir metallar (kadmiy va qo‘rg‘oshin tuzlari) alohida va kompleks holda qo‘llanilganda, quyonlar ratsionidagi to‘yimli moddalarning iste‘mol qilinishiga, hazmlanishiga, o‘zlashtirilishiga, qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlariga, organizmning tabiiy chidamliligiga ingichka ichaklardagi vorsinkalar strukturasi va bajaradigan vazifasiga ko‘rsatadigan salbiy ta‘siriga oid kompleks izlanishlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq Bio-01-2021 "Zarafshon vohasida (o'rta oqim) qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirishning morfo-biokimyoviy va fiziologik jihatlari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** quyonlar o'n ikki barmoqli ichagining morfo-funksional xususiyatlari, to'yimli moddalarning hazmlanishi, ayrim qon ko'rsatkichlari va tabiiy chidamliligiga kadmiy va qo'rg'oshin tuzlarining ta'sirini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

og'ir metallar - kadmiy va qo'rg'oshin tuzlarini ozuqa ratsioniga alohida va kompleks holda kiritilishining ozuqalar iste'moliga, to'yimli moddalar hazmlanishi va o'zlashtirilish darajalariga ta'sirini aniqlash;

me'yoridan ortiq kadmiy va qo'rg'oshin tuzlarini alohida va kompleks holda ozuqa ratsioniga kiritilishining quyonlar qoni morfo-biokimyoviy va tabiiy chidamlilik ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;

kadmiy va qo'rg'oshin tuzlarini o'n ikki barmoqli ichak tizimi shilliq pardasining strukturaviy tuzilmalariga va funksional xususiyatlariga ta'sirini aniqlash;

me'yoridan ortiq iste'mol qilingan og'ir metallar tuzlarining quyonlar ayrim ichki organlarida akkumulyatsiyalanishini aniqlash.

detoksikant sifatida qo'llanilgan eyxorniya suv o'simligining ichki organlardagi og'ir metall tuzlari akkumulyatsiyasini oldini olishi, quyonlardan olinadigan mahsulot miqdori va sifatiga ta'sirini baholash;

**Tadqiqotning obyeksi** sifatida xorijdan keltirilgan, xorijiy seleksiyaga mansub go'sht yo'nalishidagi erkak jinsli Hikol duragay quyon zotlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** kadmiy va qo'rg'oshin tuzlarini iste'mol qilgan quyonlar qoni, qon zardobi, jigar, buyrak va o'n ikki barmoqli ichak namunalari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni bajarishda umum qabul qilingan zamonaviy fiziologik, immunologik, gistologik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ozuqa ratsioniga me'yoridan ortiq kadmiy va qo'rg'oshin tuzlarini alohida va kompleks holda qo'shilishi ozuqa yedirimlilikini va to'yimli moddalar hazmlanish darajalarini kamaytirishi ilmiy asoslangan;

og'ir metall tuzlari quyonlar qonining morfo-biokimyoviy ko'rsatkichlarini pasaytirishi hamda rezistentlik ko'rsatkichlarini susaytirishi ilmiy asoslangan;

ozuqa ratsioni tarkibida me'yoridan ortiq iste'mol qilingan og'ir metall tuzlari quyonlar organizmida asosan jigar, buyrak va go'shtida akkumulyatsiyalanishi aniqlangan;

ruxsat etilgan me'yoridan ortiq kompleks holdagi og'ir metall tuzlarini saqlovchi ozuqa ratsioniga eyxorniya yuksak suv o'simligini detoksikant sifatida

kiritilishi og‘ir metallar tuzining akkumulyatsiyalanishini kamaytirishi va go‘shining sifat ko‘rsatkichlari me‘yor darajasida bo‘lishi ochib berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat

shakllantirilgan ozuqa ratsioni tarkibidagi me‘yoridan ortiq kadmiy va qo‘rg‘oshinli og‘ir metallar tuzining toksik ta‘sirini kamaytirishda detoksikant sifatida eyxorniya suv o‘simligi qo‘llanilib, og‘ir metallar tuzining quyonlar organizmida to‘planishini oldini olishi aniqlangan.

Ozuqa ratsioni tarkibida iste‘mol qilingan kadmiy va qo‘rg‘oshin og‘ir metallar tuzlari ta‘sirini kamaytirish, to‘yimli moddalarning hazmlanish darajalarini oshirish, mahsulot birligiga sarflanadigan ozuqa sarfini kamaytirish hamda quyonlarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini saqlab qolishda eyxorniya suv o‘simligidan detoksikant sifatida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** eksperimental tadqiqotlarni olib borilishida eng so‘nggi, zamonaviy hamda klassik biologik usullar va vositalaridan foydalanilganligi, aprotatsiya komissiyasi tomonidan eksperimental tajribalar va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, gistologik, fiziologik, biokimyoviy usullar va yondashuvlar yordamida olingan natijalarni statistik dasturlar yordamida (OriginPro 7.5, Microsoft Office Excel, 2010) tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati, kadmiy va qo‘rg‘oshin tuzlari alohida va kompleks holda organizmga tushishi quyonlar iste‘mol qilgan ratsion tarkibidagi to‘yimli moddalarning iste‘mol qilinishiga, hazm qilinishiga, o‘zlashtirilishiga, qonning morfo-biokimyoviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga, ingichka ichakdagi vorsinkalar strukturasi va vazifasiga salbiy ta‘sir etishi ularda ro‘y beradigan fiziologik o‘zgarishlarni ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati, og‘ir metallar tuzlari quyonlar mahsuldorligini kamaytirishi, tabiiy chidamlilik ko‘rsatkichlarini pasaytirishi, o‘n ikki barmoqli ichak shilliq pardasining strukturaviy tuzilmalariga va funksional xususiyatlari susaytiruvchi ta‘sirini hamda organizmida og‘ir metallar tuzlari to‘planishining oldini olishda quyonlar ozuqa ratsioniga eyxorniya suv o‘simligini kiritish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Og‘ir metallar tuzlarini quyonlar ovqat hazmi traktining morfo-funksional xususiyatlariga, tabiiy chidamliligiga ta‘siri bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ozuqa ratsioni tarkibiga eyxorniya yuksak suv o‘simligini kiritish yo‘li bilan go‘sh yo‘nalishidagi Hikol zotli quyonlar qonining morfo-biokimyoviy, mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining kamayishi hamda hazm tizimini morfo-funksional xususiyatlari, tabiiy chidamliligining susayishini keltirib chiqaruvchi og‘ir metallar tuzining salbiy ta‘sirini oldini olish bo‘yicha tavsiyalar Samarqand viloyati Oqdaryo tumani “Tarnov sabzavotlari” fermer xo‘jaligi va Urgut tumani “Shaxinabonu Azizbek kelajagi” fermer xo‘jaliklarida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 8- iyundagi 02/23-993 son ma‘lumotnomasi). Natijada quyonlar organizmida ozuqa ratsioni tarkibidagi to‘yimli moddalarning hazmlanish darajalari oshirilib, quyonlarning kunlik o‘shish ko‘rsatkichini nazoratga nisbatan 9,4% ga oshirish imkonini bergan;

ozuqa ratsioni tarkibidagi og‘ir metall tuzlari ta‘sirini kamaytirishda eyxorniya suv o‘simligining detoksikantlik xususiyatlari asosida quyonlar qonining morfo-biokimyoviy va immunologik ko‘rsatkichlariga ta‘sirini kamaytirish, quyonlardagi fiziologik holatini yaxshilash hamda mahsuldorlikni oshirishga qaratilgan oziqlantirish bo‘yicha tavsiyalar Samarqand viloyati Oqdaryo tumani “Tarnov sabzavotlari” fermer xo‘jaligi va Urgut tumani “Shaxinabonu Azizbek kelajagi” fermer xo‘jaliklarida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya atrof-muhitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 5-dekabrda 03-03/-7784 son ma‘lumotnomasi). Natijada, quyonlar mo‘tadil o‘sib, rivojlanib, turli kasalliklar bo‘yicha yo‘qotiladigan quyonlar bosh soni 22,4% kamayib, sog‘lom quyonlarning kunlik o‘sish ko‘rsatkichini 9,4% ga oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Ilmiy tadqiqot ishining natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika miqiyosidagi ilmiy - amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ish chop etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanigan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Og‘ir metallar tuzlarining organizmga ko‘rsatadigan salbiy ta‘siri bo‘yicha zamonaviy ma‘lumotlar”** deb nomlangan birinchi bobida og‘ir metallar tuzlarining fizik, kimyoviy xususiyatlari, tuproq suv, havo, ozuqa va organizmdagi ruxsat etilgan me‘yorlari, organizmga mutagen, konserogen, toksik ta‘sirlari, ya‘ni organizmidagi fiziologik jarayonlarga, qonining morfologik va biokimyoviy, mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘siri bo‘yicha xorijiy va mahalliy sharoitlarda olib borilgan ishlarning keng tahlili qatorida quyonlarning biologik xususiyatlari va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan. Respublikamiz viloyatlarida quyonlar hazm tizimiga, tabiiy chidamliligiga, qonining morfo-biokimyoviy ko‘rsatkichlariga, kunlik o‘shiga kadmiy va qo‘rg‘oshin tuzlarining alohida va kompleks holdagi salbiy ta‘sirlari va bu salbiy ta‘sirlarni xavfsiz biologik yo‘l bilan korreksiyalash usullari o‘rganilmaganligi aniqlandi. Shu sabab o‘rganilishi zarur bo‘lgan jihatlari tanlab

olinib mazkur ishning maqsadi, vazifalari shakllantirildi va rejalashtirilgan tadqiqot ishlarining ijobiy yechimiga erishish maqsadida mamlakatimizning nufuzli ilmiy markazlari olimlari bilan maslahatlashgan holda ushbu tadqiqot ishi amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqotni bajarish materiallari va o‘rganish usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarni olib borish bosqichlari, ularni bajarishda foydalanilgan usullar yetarlicha to‘liq bayon qilingan. Shu jumladan, eksperimental tajribalarni amalga oshirish davomida quyonlarning umumiy holati, klinik ko‘rsatkichlari (nafas harakatlari, yuragining qisqarish chastotasi, tana harorati) bilan bir qatorda tadqiqot ishining umumiy chizmasi haqidagi usullar shular jumlasiga kiradi.

Dissertatsiya ishi 2021-2023 yillar mobaynida Samarqand davlat universiteti Biokimyó institutining ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq Bio-01-2021 “Zarafshon vohasida (o‘rta oqim) qishloq xo‘jaligi hayvonlarining mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini oshirishning morfo-biokimyoviy va fiziologik jihatlari” mavzusi doirasida ilk bor ozuqalar tarkibiga alohida va birgalikdagi turli dozalarda qo‘shilgan og‘ir metallar tuzlarining hazmlanish va almashinuv jarayonlariga ta‘siri kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqot ishining obyektida Fransiyadan keltirilgan Hikol duragay quyonlardan foydalanildi. Tajriba quyonlari organ va to‘qimalarida zaharli tuzlarini akkumulyatsiyasini o‘rganish uchun kadmiy va qo‘rg‘oshin atsetat tuzlaridan alohida va kompleks holda oziqlantirish yo‘li bilan foydalandik. Detoksikant sifatida viloyat sharoitida yetishtirilgan eyxorniya suv o‘simligidan foydalanildi.

### 1-jadval.

#### Tajribani bajarishda foydalanilgan tajriba chizmasi.

Guruhlar				
Nazorat	I tajriba	II tajriba	III tajriba	IV tajriba
An‘anaviy xo‘jalik ratsioni va qo‘shilgan qo‘shimchalar				
An‘anaviy xo‘jalik ratsioni (AXR). 100gr hisobida	AXR+ kadmiy atsetati 5 mg/kg Cd(CH <sub>3</sub> CO) <sub>2</sub>	AXR+qo‘rg‘oshin atsetati 25 mg/kg Pb(C <sub>2</sub> H <sub>3</sub> O <sub>2</sub> ) <sub>2</sub>	AXR+kadmiy atsetat + qo‘rg‘oshin atsetat <sub>2</sub> 5+25 mg/kg.	AXR+kadmiy+ qo‘rg‘oshin atsetatlari 5+25 mg/kg va eksperimental qo‘shimcha ozuqa eyxorniya yuksak suv o‘simligi (9:1 nisbatda )

Tajribalarni tashkil qilishda Butun Rossiya chorvachilik ilmiy tekshirish instituti tomonidan tavsiya qilingan mayda shoxli hayvonlarda muvozanat va fiziologik tajribalarni bajarish usuli bo‘yicha har birida 5 boshdan analogik hayvonlardan 5 ta guruh tashkil qilinib: nazorat va 4 ta tajriba guruhlari shakllantirildi. Barcha guruhlardagi oziqlanish ratsioni tarkibidagi ozuqalar nazorat guruhi quyonlariniki bilan bir xil bo‘lib, I tajriba guruhi 5 mg/kg kadmiy atsetati, II tajriba guruhi 25 mg/kg qo‘rg‘oshin atsetati, III tajriba guruhi har ikkala atsetat tuzlarini kompleks holda qabul qilgan bo‘lsa, IV tajriba guruhi quyonlari har ikkala atsetat tuzlarini kompleks holda qabul qilish bilan birga, ular ratsioni tarkibidagi quruq moddaning 10% ulushida eyxorniya yuksak suv o‘ti ko‘k massa holida berildi. Bu yerda asosiy maqsad og‘ir metallar tuzlarini ichki organ va to‘qimalardan chiqarib yuborilishiga ko‘rsatadigan ta‘sirini o‘rganishdan iborat edi.

Quyoning kunlik oziqlanish ratsionlari A.P.Kalashnikov, V.I.Fisinin, N.I.Kleymentov va boshqalar tomonidan tayyorlangan va Rossiya qishloq xo‘jalik fanlar akademiyasi) tomonidan tavsiya qilingan “Qishloq xo‘jalik hayvonlarining oziqlantirish normalari va ratsionlari (2003)” asosida va ratsion tarkibidagi to‘yimli moddalar Butun Rossiya teri mo‘ynachilik va quyunchilik ilmiy tekshirish instituti tomonidan tavsiya qilingan normalarga mos holda shakllantirildi. Oxirgi guruh quyonglari ratsioniga esa quyonglar oshqozon-ichaklar tizimidagi fermentativ jarayonlarni rag‘batlantiruvchi va boshqa metabolik jarayonlar kechishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi hamda ratsion tarkibiga kiritilgan og‘ir metallar tuzlarining jamlanishiga detoksikant sifatida ta‘sir qiluvchi eyxorniya suv osimligi natural nam holatida yedirildi.

Tadqiqot ishining laboratoriya tahliliy ishlari tajribalari Sharof Rashidov nomidagi SamDU qoshidagi “Biokimyoy” instituti vivariysida zamonaviy asbob uskunalari yordamida amalga oshirildi. Laboratoriya hayvonlarini oziqlantirish vivariy sharoitlarida standart ratsional tarkibda olib borildi.

Laboratoriya tahlillari uchun qon quyonglar quloq venasidan ertalabki oziqlantirishgacha bo‘lgan muddatda olindi.

Olingan qon namunalar darhol Biokimyoy instituti vivriysidagi fiziologiya laboratoriyasiga keltirilib, u yerdagi YeCL 760 Filliy avtomated Xayemostasis analyser analizatorida tahlildan o‘tkazildi. Qon plazmasining umumiy oqsillari fotometrik usulga asoslangan (YeRBA 200 XL ) avtomatlashgan biokimyoviy analizator yordamida aniqlandi.

Tajribalardagi hayvonlar qoni to‘liq tekshirilishi va belgilangan maqsadga erishish hamda yakuniy xulosaga kelish uchun, uning fizik-kimyoviy xususiyatlari, molekulyar og‘irligi, gemoglobin, umumiy oqsil va uning fraksiyalari, qoldiq azot, shaklli elementlarning miqdori, leykogramma va boshqalar aniqlandi.

Quyonglar qoning gematologik, biokimyoviy tahlillarini bajarishda yuqorida qayd qilingan usullardan foydalanildi.

Organ va to‘qimalardagi kadmiy va qo‘rg‘oshinning umumiy miqdori A.S.Sodiqov nomidagi Biorganik kimyo instituti laboratoriyasida makro va mikroelementlarni plazmalar induktiv bog‘langan mass-spektrometriya metodi bilan aniqlandi (ISP-MS).

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ishlarining natijalari va ularning muhokamasi”** nomli uchinchi bobida og‘ir metallar tuzlari qo‘shilgan ratsion bilan oziqlantirilgan quyonglarda oshqozon ichak tizimidagi kechayotgan fiziologik jarayonlar natijasida moddalarning hazmlanish va o‘zlashtirilish ko‘rsatkichlariga turli dozalardagi alohida hamda kompleks holda iste‘mol qilingan og‘ir metallar tuzlarining ta‘siri, shuningdek ichaklar tizimining shilliq pardasining faoliyatiga va strukturaviy tuzilmalariga, quyonglar qonining morfo-biokimyoviy va rezistentlik xususiyatlariga salbiy ta‘siri o‘rganilgan. Detoksikant sifatida foydalanilgan eyxorniya suv o‘simligi esa bu salbiy ta‘sirlarni kamaytirishi, to‘qimalar tarkibidagi tuzlarning tashqariga chiqarib yuborilishi hamda olinadigan mahsulot miqdori va sifat ko‘rsatkichlariga ta‘siri o‘rganilib, ularga interpretatsiya berilgan.

Fermer xo‘jaligida foydalanilayotgan an‘anaviy xo‘jalik ratsioni tarkibi 2-jadvalda berilgan bo‘lsa, detoksikant sifatida foydalanilgan eyxorniya suv o‘simligi

tarkibi 3-jadvalda berilgan. Ma'lumki, qishloq xo'jalik hayvonlarining mahsuldorligini oshishiga, sifatini yaxshilanishiga asosiy omil oziqlanish hisoblansa-da, lekin ozuqaning iste'mol qilinishiga va oshqozon ichaklar tizimidagi biokimyoviy va mikrobiologik jarayonlarining mo'tadil kechishiga ratsionning tarkibi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Shulardan kelib chiqqan holda dastavval kadmiy va qo'rg'oshin elementlarining tuzlaridan alohida va kompleks holda qabul qilinganda, tuzlarning ratsion tarkibidagi to'yimli moddalarning iste'mol qilinishiga, hazmlanishiga va quyonlar organizmi tomonidan o'zlashtirilishiga ta'sirini o'rgandik.

## 2-jadval.

### An'anaviy xo'jalik ratsioni (AXR) tarkibi

Komponent	Massa tarkibidagi ulushi (%)
Turli o'simliklar uni	27,3
Bug'doy doni	18,5
Bug'doy kepagi	17,4
Makkajo'xori doni	13,8
Jo'xori doni	10,2
Kungaboqar shroti	10,4
Trikalsiy fosfat	2,0
Osh tuz	0,4

## 3-jadval.

### Eyxorniya o'simligining kimyoviy tarkibi, % da.

Ko'rsatkichlar		Massa tarkibidagi ulushi
Namligi,		26,9
Quruq modda,		73,1
Organikmoddalar	Protein	33,98
	Yog'	1,70
	Kletchatka	11,24
Anorganik moddalar	Kul	23,10
	Kalsiy	1,69
	Fosfor	1,38

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, eyxorniyaning tarkibida oqsillar yuqori, kletchatka kam, asosiysi oqsillar to'la qiymatli, chunki uning tarkibi barcha almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalardan tashkil topgan. Bu esa bizga qo'yilgan maqsadda erishishimizda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi 4-jadvalda og'ir metallar tuzlarining ta'siri ostida ratsion tarkibidagi to'yimli moddalarning iste'mol qilinishi, hazmlanishi va o'zlashtirilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, ratsionda berilgan ozuqalar miqdori barcha guruhlarda bir xil bo'lgan bo'lsa-da, og'ir metallar tuzlari qo'shilgan tajriba guruhlari quyonlari tomonidan ozuqalarning iste'mol qilinishi nazorat guruhiga nisbatan pasayib borishini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich I, II va III tajriba guruhlarida nazoratga nisbatan mos holda 4,1%, 3,0% va 11,4% kam iste'mol qilganligini ko'rsatgan bo'lsa, IV tajriba guruhida esa bu farq atigi 0,9 % ni tashkil etdi.

**4-jadval.**

**Ozuqa ratsioni tarkibidagi quruq moddalarning iste'mol qilinishi va hazmlanishiga og'ir metallar tuzining ta'siri (M+m, n=5)**

Ko'rsatkichlar	Guruhlar				
	Nazorat	I	II	III	IV
Ratsionda berilgani, g.	199,7±1,7	198,5±1,2	198,9±0,9	198,7±1,1	198,6±0,7
Oxurda qolgani, g.	35,9±0,8	49,3±0,93	44,9±1,0*	56,6±0,9	36,2±0,6
Iste'mol qilingani, g.	163,8±3,8	149,2±2,2	154±2,3	142,1±2,2	162,4±2,9
Tezak bilan ajralgani, g.	46,2±0,6	50,7±1,2*	50,2±0,9	54,3±1,0	47,8±1,3
Hazmlangani, g	117,6±1,9	98,5±0,4	103,8±1,0	87,8±0,7*	114,6±1,8
Hazmlanish, koeffisiyenti, %.	72,0±1,3*	66,0±1,3	67,4±1,1	61,8±1,2	71,0±0,9

Izoh P<0,05; P<0,01\*;

Shu boisdan nazorat va IV tajriba guruhi quyvonlarida quruq moddaning iste'mol qilingan boshqa komponentlari bo'yicha ham analogik ma'lumotlar olindi. Ko'rinib turibdiki, har ikkala turdagi tuzlarni iste'mol qilish bilan birga eyxorniya suv o'simligi iste'mol qilgan quyvonlar organizmidagi metabolik jarayonlar nazorat guruhidagidek kechganligidan dalolat beradi. Shuningdek hazmlanish koeffitsientlari ham mos holda deyarlik bir xil, 72,0 va 71,0 % ko'rsatkichlarni tashkil etdi.

5-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra ratsion tarkibidagi organik modda va uni tashkil qiluvchi komponentlarning miqdori bo'yicha ham farqlarning mavjudligi guruhlardagi quyvonlardan olinadigan kunlik o'sish va rivojlanish darajalari orasida ham farqlarning kelib chiqishiga olib kelganligini ta'kidlaymiz. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha I, II va III tajriba guruhlari nazorat guruhidagi quyvonlardan quruq moddani 4,2%, 3,0% va 13,0% ga kam iste'mol qilinishi aniqlandi.

**5-jadval.**

**Iste'mol qilingan to'yimli moddalar miqdoriga og'ir metallar tuzining ta'siri, g. (M+m, n=5)**


Ko'rsatkichlar	Guruhlar				
	Nazorat	Tajriba			
		I	II	III	IV
Iste'mol qilingani	163,78±2,4	149,2±3,1	153,9±2,9	142,12±4,1*	162,44±1,8
Quruq modda	146,6±1,8	140,7±1,1	142,3±1,2	127,2±1,3	145,4±1,0
Organik modda	117,7±1,6	107,9±1,6	111±1,2	102,1±1,1	116,7±1,1
Xom protein	19,6±0,8	18,7±0,7	18,9±0,2*	17,3±0,7	19,45±0,6
Xom yog'	4,7±0,1	4,5±0,1	4,6±0,2	4,2±0,1	4,6±0,1
Kletchatka	31,5±0,2	28,8±0,3	29,7±0,3*	27,2±0,2	31,3±0,4
AEM	57,6±0,8	48,5±0,6	50,05±1,1	46,5±0,9	57,1 ±0,4

Izoh P<0,05; P<0,01\*;

Eyxorniya suv o'simligi qo'shimcha ozuqa sifatida qabul qilgan IV tajriba guruhi quyvonlari oshqozon ichaklar tizimida hazmlangan to'yimli moddalarning foiz ko'rsatkichlari esa nazorat quyvonlari ko'rsatkichlariga yaqin yoki teng bo'lishi kuzatildi.

Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, I, II va III tajriba guruhlari orasida ozuqalarni eng kam o'zlashtirgan guruh hayvonlar har ikkala turdagi og'ir metallar tuzlarini iste'mol qilgan III tajriba guruhi quyonlari bo'ldi.

Iste'mol qilingan og'ir metallar tuzlarining alohida va kompleks holdagi kombinatsiyalari ta'siri natijasida I, II, III tajriba guruhlari quyonlari kunlik o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlarning ham o'zgarishi yuz berdi. Bu o'zgarishlar quyonlar ratsioniga qo'shilgan og'ir metallar ta'sirida, hazm tizimida kechayotgan metabolik jarayonlarning buzilishi va ichaklar devorlaridagi ayrim shira ajratuvchi bezlar, vorsinkalar faoliyatlarini funksional jihatdan o'zgarishi natijasidir.



**1-rasm. Quyonlarning kunlik o'sish ko'rsatkichlariga og'ir metallar tuzining ta'siri**

Kunlik o'sish ko'rsatkichlari tajribaning boshlanishida barcha guruh quyonlarida bir xil bo'lgan bo'lsa, 120 kunlik yosh davrida mos holda nazorat guruhiga nisbatan I guruhda -11,5%, II guruhda-10,1%, III guruhda- 14,8 va IVguruhda 0,9% ga kam bo'lishini ko'rsatdi. Quyonlar yosh davrlarining ortishiga mos holda quyonlardan olinadigan kunlik o'sishga og'ir metallarning salbiy ta'siri ortib borishini va olinadigan mahsulot miqdori kamayib, unga sarflanadigan sarf-xarajatlarning ortishiga va ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini qimmatlashishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, hayvonlarning o'sish tezligini o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi, o'sish tezligi yuqori bo'lgan hayvonlar bir xil sharoitda va bir xil ozuqalar sarfida boshqa past yoki kasalmand hayvonlarga nisbatan yuqori o'sish tezligiga ega bo'lgan hayvonlarga nisbatan o'sish birligiga kam miqdorda to'yimli moddalar va energetik ozuqa birliklarni sarflaydilar.


Hayvonlarning boqish davrida qo'llaniladigan turli qo'shimcha ozuqaviy moddalarning ratsion tarkibiga qo'shib yedirilishi, ularni o'sish tezligiga va mo'tadil rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Buning natijasida hayvonlarning o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish

muhim ahamiyat kasb etganligi bois fermentatsiya jarayonlari shiddat bilan kechuvchi o‘n ikki barmoqli ichakda moddalarning hazmlanishi va qon va limfaga so‘rilishida yuz beradigan gistologik va funksional o‘zgarishlarni aniqlash uchun gistologik preparatlar tayyorlanib, ularni ushbu sohaning mutaxassislari bilan birgalikda tahlil qildik va baholadik.


Hayvonlar tomonidan iste‘mol qilinadigan ratsion va unga qo‘shiladigan qo‘shimcha moddalar eng avvalo hazmlash xususiyatiga ega bo‘lgan bez hujayralarining mo‘tadil faoliyatiga o‘zining ta‘sirini ko‘rsatadi. Natijada u yerda kechayotgan fermentativ jarayonlar tizimini tashkil qiluvchi bez hujayralarining ma‘lum darajada bo‘lsa-da fiziologik me‘yor chegarasidan chiqishiga sabab bo‘ladi. Oqibatda hayvonlar organizmidagi biokimyoviy, mikrobiologik jarayonlarning sustlashuvi yoki tezlashuvi kuzatiladi, bu esa o‘sha jarayonlarda ishtirok etuvchi, qisman uning tashqarisida joylashgan jigar va buyraklarning ham faoliyatini buzilishiga olib kelishi mumkin.

Tajribalarimiz davomida ratsion tarkibidagi to‘yimli moddalarning iste‘mol qilinishi, hazmlanishi, hazmlangan to‘yimli moddalarning o‘zlashtirilishidan qat‘iy nazar ichaklar devorlarini hosil qiluvchi epitelial to‘qimalar, ularning yuzasida joylashgan vorsinkalar va boshqa strukturaviy tizimlarning holatlari haqidagi qonuniyatlarni o‘rganishni taqozo etdi.


Metabolik jarayonlarda faol ishtirok etuvchi ichaklar tizimining shilliq osti pardasi siyrak biriktiruvchi to‘qimadan hosil bo‘ladi, unda murakkab tarmoqlangan naysimon Brunner (duodenal) bezlar joylashadi, ularning chiqaruv naylari kriptalarga ochilib, bir qavatli kubiksimon yoki silindrsimon epiteliylar bilan qoplangan. Quyonglar ingichka ichagi shilliq osti qavatining qalinligi 103,7 mkm.ni tashkil qilib, ba‘zan chigali (meysner)ning vegetativ gangliyalari, qon va limfa tomirlari joylashganligi aniqlandi. Ichakning mushak qavati ikki qavat silliq mushaklar to‘qimasidan iborat bo‘lib, ichki qavati doira (halqasimon) shakldagi, tashqi qavati bo‘ylama (parallel) shaklda joylashgan.



**2-rasm. Nazoratdagi quyongning o‘n ikki barmoqli ichagi**



**3-rasm. Kadmiy atsetat tuzini va qo‘rg‘oshinatsetat tuzini iste‘mol qilgan quyongning o‘n ikki barmoqli ichagi**



**4-rasm. Kadmiy atsetat, qo‘rg‘oshin atsetat tuzini va eyxorniya suv o‘tini iste‘mol qilgan quyongning o‘n ikki barmoqli ichagi**

1-Shilliq qavat. 2-shilliq osti qavati. 3-muskulli qavat. 4-seroz qavat. A-vorsinkalar. B-kriptalar

